

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY FOTOPALATASI
INV. JA

– Men bu gazetani juda yaxshi ko‘raman, unga yana albatta obuna bo‘laman, – deydi Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 235-maktabning 5-sinf o‘quvchisi Umida ABDURAHMONOVA.



2007-yil
13 – 19-avgust
N:33
(66626)

Tong YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalari va o‘smirlari gazetasi

DUSHANBADAN

MAKTABNI QUYOSH BATAREYALARI ISITADI

Samarqand viloyati, Urgut tumani, tog‘li Andak qishlog‘idagi bolajonlarning quvonchi cheksiz. Sababi, ular uchun yangi maktab binosi va sport zali qurib bitkazildi. E‘tiborli tomoni shundaki, yangi o‘quv dargohi quyosh batareyasi yordamida isitiladi.

YOSH SHAXMATCHILARIMIZ SINGAPURDA

Ayni kunlarda sportsevar bolajonlarimiz diqqati Hindistonning Singapur shahriga qaratilgan. U yerda shaxmat bo‘yicha bolalar va o‘smirlar o‘rtasida navbatdagi Butunjahon shaxmat Olimpiadasi o‘tayapti. Olimpiadaning bosh sovrini uchun bahslashayotgan dunyoning 33 mamlakatidan kelgan jamoalar orasida bizning umidli shaxmatchilarimiz peshqadamlikni qo‘ldan bermayotganliklarini eshitib, quvondik. Bolajonlar tengdoshlari Jamshid Mustafoyev, Xurshid Mustafoyev, Pak Yevgeniy va Ulug‘bek Pelyayevlarni g‘alabalari bilan qutlamoqdalar.


Singapur Olimpiadasidan muvaffaqiyat qozonib qaytgan shaxmatchi tengdoshlaringiz bilan gazetamiz orqali tanishib borasiz.

O‘z muxbirimiz



DUSHANBAGACHA

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



– Gazetada rasmimiz chiqibdi, ko‘rdingizmi?..

«Vatan ichra mo'jaz Vatanim» insholar tanloviga

XARITADA O'Z O'RNI BOR

Tanlovga yo'llagan bu inshoim o'z vaqtida yetib boradimi, yo'qmi, bilmadim-u, lekin tengdoshlarim men hikoya qilayotgan go'shaning ham yurtimiz xaritasida, Vatanimiz ravnaqi yo'lida o'z o'rni borligini bilib qo'yishlarini istardim. Qizilqum cho'li haqidagi videofilmlarda ham bu yer haqida aytib o'tilmagan.

Navoiy viloyatining tabiiy xaritasiga ko'z yugurtirsangiz, Uchquduq va Zarafshon shaharlaridan biroz masofa uzoqroqda Davgiztav degan joy nomi bor. Bu uch ming aholi istiqomat qiladigan qo'rg'on bo'lib, geologlar qo'rg'oni sanaladi. Chunki qo'rg'on aholisining asosiy qismini geologlar tashkil qiladi.

Qo'rg'onning nega bunday nomlanishi bilan qiziqib, qariyalarga murojaat qildim. Aytishlaricha, qadimda bu yerda katta dev qiz yashagan bo'lib, xalqini yovuz kuchlardan himoya qilgan ekan. Biroq, og'ir janglarning birida u halok bo'lib, yerga yiqilgan va tanasi toshga aylanib qolgan ekan.

Darhaqiqat, atrofdagi tog'larga nazar tashlasangiz, ular odam qiyofasini eslatishini ko'rasiz.

Bu yerdagi «Davgiztav», «Shimoliy Adjibugut», «Amantaytau Goldfildz» oltin konlari hamda «Visokovoltnoye» kumush konlari davlatga necha-necha tonnalab oltin, kumush yetkazib beradilar.

Qo'rg'onida to'rt binodan iborat o'rta ta'lim maktabi bo'lib, 400 dan ziyod o'g'il-qiz tahsil oladi. «Zarafshon Nyumont» qo'shma korxonasi tomonidan zamonaviy kompyuterlar keltirilgan. Ana shu korxonada o'quvchilarni bepul darsliklar bilan ta'minlaydi. Bu g'amxo'rlikka javoban o'quvchilar ham a'loga o'qib, ko'pchiligi Angliya, Amerika, Rossiya, Chexiya kabi davlatlarda tahsil olish uchun yo'l olishdi.

Kichkinagina qo'rg'onchada 3 ta kutubxona mavjud.

Davgiztav asosan bahor oylarida o'zgacha joziba, o'zgacha go'zallik kasb etadi. Qahraton qishdan qo'rqib, iniga yashirinib olgan cho'l quyonlari, yumronqoziqlar, toshbaqalar, tulklar, ilonlar, jayronlar, cho'l mushuklari, echkiemarlar, turli xil hasharot va qushlar, xullas, «Qizil kitob»ga kiritilgan jonivorlar saxiy quyosh nurlaridan bahramand bo'lish uchun inlaridan chiqadilar. Yumshoq qum ustida sabza urgan maysalar bahorning mayin shabbadasida dir-dir titraydi.

Davgiztavning bugungidek obod va ko'rkam holga kelgunicha ozmuncha odamlarning mehnatlari singdimi? Ular orasida geolog ota-onam ham borligidan faxrlanaman.

Hilola RO'ZIYEVA,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi

Tahririyatdan:

Aziz o'quvchilar, mustaqilligimizning 16 yilligi munosabati bilan gazetamizda «Vatan ichra mo'jaz Vatanim» insholar tanlovi e'lon qilinganidan xabaringiz bor.

Tanlovga juda ko'plab insholar keldi, aksariyatini gazetada chop etdik. Ta'til kunlari bo'lishiga qaramay, kelayotgan xatlarning keti uzilmayapti. Tanlovimiz shartiga ko'ra uni istiqloq bayrami arafasida yakunlashimiz va g'oliblar ro'yxatini gazetada e'lon qilishimiz lozim. Shuning uchun ham quyidagi o'quvchilardan kelgan insholarni gazetada chop etish imkonimiz yo'q. Lekin ularni diqqat bilan o'qib chiqib, albatta tanlovning yakuniy bosqichida inobatga olamiz:

Durdona Qamchiyeva,

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 29-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi;

Shahruza Nasullayeva,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 17-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi;

Shahnozaxon Omonova,

Andijon viloyati, Marhamat tumani, Qoraqo'rg'on qishlog'i, Chuqur mahallasi;

Elyor Xodixonov,

Jizzax viloyati, Forish tumani, Garasha

qishlog'i, Amirxon Boqiyev nomli maktabning 9-sinf o'quvchisi;

Pokizaxon Hamroyeva,

Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Parcha qora qishlog'i;

Asadulloh Abdurashidov,

Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 3-ixtisoslashgan maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi;

Mastura Jo'rayeva,

Namangan viloyati, Chortoq tumani, Alixon qishlog'i;

E'zoza Solijonova,

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri;

Bobur Haydarov,

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri;

Diyora Sharopova,

Samarqand shahri, Lev Tolstoy ko'chasi;

Shahnoza Qodirova,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 48-maktabning 7-sinf o'quvchisi;

Baxtinur Safarbekova,

Toshkent viloyati, O'rtachirchiq tumani, O'zbekiston jamoa xo'jaligi;

Nafisa Kamolova,

Farg'ona viloyati, Yaypan shahri, Go'sht qishlog'i;


Sayyora To'rayeva,

Jizzax viloyati, Zomin tumani, Jom qishlog'idagi 3-maktab o'quvchisi.

Tahririyatimizga maktub yo'llagan barcha o'quvchilarga minnatdorchilik bildiramiz.

BILASIZMI?

Yaqinda Angliyada olamga mashhur adib Joan Raulingning Garri Potter haqidagi sarguzasht kitobining so'nggi 7-jildi ham bosmadan chiqdi. Kitob-sevarlar bu yangi asarni olish uchun kecha-yu kunduz navbatda turishdi.



Hatto Garri Potter haqidagi so'nggi kitobni mutolaa qilish bo'yicha o'ziga xos bellashuv ham bo'lib o'tdi. Tez o'qish bo'yicha jahon chempioni Enn Shons kitobni hammadan tez – 47 daqiqada o'qib chiqdi. Braziliyalik fanatlar esa kitobni oxirigacha o'qib chiqishga 3 kun sarfladilar. Kitobning partugal tilidan tarjimai internet sahifalariga ham joylashtirildi. Bu ishda 200 kishi ishtirok etdi va ularga 14 yoshli qizaloq rahbarlik qildi.

Kinoda esa yosh sehring Garri Potterni talqin etgan yosh aktyor Deniyel Redkliff 18 yoshga to'lgan kunida o'zi rol o'ynab, ishlab topgan 20 million funt sterlingni ishlatish huquqini qo'lga kiritdi.

– Men o'ta daromadli vaziyatda ekanimni yaxshi bilaman. Lekin bo'lar-bo'lmasga katta sport avtomobillari to'plamini xarid qiladigan kishilardan biri bo'lmoqchi emasman, – dedi Redkliff. – 10 funt sterling turadigan buyumlar, ya'ni kitoblar, SD va DVD sotib olishni xush ko'raman, – deb qo'shimcha qildi aktyor.

Deniyel Redkliff 11 yoshida Joan Raulingning «Garri Potter hikmatlar toshi» romani asosida suratga olingan kartinadagi ishtiroki bilan shuhrat qozongan. Biroq, uning kinodagi faoliyati ilgariroq Devid Kopperfild shousida ishtirok etib, Jeymi Li Kertis bilan «Panamalik chevar» filmida suratga tushganidan boshlangan.

Yaqinda Redkliff teatr sahnasiga ham ilk bor chiqdi. U endilikda «Ot» filmida nihoyatda qiyin bo'lgan bosh rolni ham qoyilmaqom qilib ijro etib, ko'pchilikni hayratga soldi.

YANGI MAKTAB – YAXSHI MAKTAB!

Maktabimiz Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi Gul qishlog'ida joylashgan. Qishlog'imiz nomini eshitib, gullari juda ko'p bo'lsa kerak, deya yotgandirsiz? Afsuski, unday emas. Qishlog'imizning nega bunday nomlanishini, uning tarixini bilolmayapman-da.

Qishlog'imiz keksalari bilan suhbatlashib, tarixini albatta bilib olaman. Keyin sizlarga ham aytib beraman.

Qishlog'imizda gullar kam bo'lsa-da, maktabimizda juda ko'p. Atrofi chiroyli gulzor, mevali daraxtlar, ming yillik chinorlarga boy bo'lgan maktabimiz yuz yillik tarixga ega. Bu yil yangi o'quv yilini yangi maktabda boshlaymiz. Juda eskirib, yaroqsiz ahvolga kelib qolgan maktabimiz binosi o'rnida yangisi qad rostladi.

Maktabimiz «2004–2009- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» loyihasiga asosan tubdan yangilandi. Qo'li gul bunyodkorlar mehnati evaziga bunyod bo'lgan shinam va yorug', zamonaviy jihozlar bilan to'lgan sinf xonalarimizni ko'rib, juda quvondik. Bunday maktabda faqat a'lo baholarga o'qishga harakat qilamiz. Yangi ta'mirlangan sport zalimiz va maydonchamizda o'tadigan ilk musobaqada 16 yoshli sportchilarimiz bellashadilar. Bu esa istiqlolimizning to'yiga bizning sovg'amiz bo'ladi. Musobaqa g'olibiga 16 ta kitob hadya qilmoqchimiz.

Yoqutxon YIGITALIYEVA,
5-sinf o'quvchisi

MAKTABGA TAYYORMISAN, KICHKINTOY?

Sentabr eshik qoqmoqda



uchun profilaktika muassasalariga yuboriladi.

– **Bolani maktabga tayyorlashda MTM (Maktabgacha ta'lim muassasasi)ning ahamiyati borasidagi fikringiz?**

– MTMdan kelgan bolalarning aqliy rivojlanishi, tafakkuri, dunyoqarashi uyda tarbiyalangan bolanikidan ancha yuqori. Respublika Tashxis Markazi tomonidan tayyorlangan testlardan MTM tarbiyalanuvchilari ijobiy o'tishmoqda.

– **Farzandlarini 1-sinfga berayotgan ota-onalarga qanday maslahatlar bera olasiz?**

– Har bir ota-ona farzandi uchun bir kunda hech bo'lmasa 1 soat vaqt ajratsa. Ushbu vaqt mobaynida bolaning nutqini, aqliy rivojlanishini o'stiradigan suratli kitoblarni o'qib berishsa, bolaning dunyoqarashi kengayadi. Bola bergan savolga kattalar erinmasdan to'liq javob berishsa, yana ham yaxshi bo'lar edi.

– **Suhbatingiz uchun rahmat. O'ylaymizki, ota-onalar o'z farzandlarining nafaqat aqliy rivojlanishiga, balki ularning jismoniy sog'lomligiga ham e'tibor qaratishadi. Shundagina kelajak avlodning sog'lom va barkamol bo'lib yetishishida katta hissa qo'shgan bo'ladi.**

Gulyuz BAHODIR qizi

– Bo'ldi, Shahnoz, yig'lamagin, baribir ikkalimiz bir sinfda o'qiyamiz.
– Bo'ying past, deyishdi-ku, endi keyingi yil 7 yoshimdan maktabga chiqarkanman, – yig'lashda davom etdi qizcha...
Maktab darvozasi oldida turgan ikki dugonaning haqiqatdan ham birining bo'yi balandroq, ikkinchisini esa pastroq ekan. Yig'layotgan qizaloqni yupatish uchun:
– Hechqisi yo'q, 7 yoshga to'lguningcha, bo'ying ham o'sadi, – desam, u:
– Bo'yim past bo'lsa, nima qilibdi, birinchi partada o'tirsam ham bo'ladi-ku, – deya keskin javob berdi.

6 yoshli bolalarni sinovdan o'tkazayotgan hay'at a'zolari o'tirgan xonada ota-onalar o'z farzandlari bilan navbat kutib turishardi. Ayrim bolalar berilayotgan savollarga dadil javob berishsa, ayrimlari yig'lab xonadan chiqib ketishayotganiga guvoh bo'ldik. Ko'rik tugagach, YuTXTB qoshidagi Tashxis Markazi rahbari Yunusova Munira Muhammedovnaga bir necha savollar bilan murojaat etdik:

– Ayni kunlarda ota-onalar 6 yoshli farzandlarini Respublika Tashxis Markazi ko'rigidan o'tkazish uchun olib kelmoqdalar. Lekin barcha 6 yoshli bolalar ham ko'rikdan ijobiy natija bilan o'ta

olmayapti. Bunga bolaning jismonan rivojlanmaganligi sabab bo'la oladimi?

– Olti yoshli bolalarning tibbiy ko'rigi to'g'risidagi Nizomda maktabda ta'lim olishlariga monelik qiluvchi kasalliklari bo'lmagan, sog'lom deb topilgan bolalarga (7 yoshlilar bundan mustasno) umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qishga ruxsat beriladi. Psixologik-pedagogik ko'rik mutaxassislari bolaning jismoniy, ruhiy rivojlanish holati, salomatlik darajasi, mantiqiy fikrlashi, nutqi, tafakkurini tekshirib, so'ngra, tibbiy xulosa chiqaradi. 1-sinfga qabul qilinyotgan o'quvchi xoh 6 yoshda bo'lsin, xoh 7 yoshda, eng avvalo, jismonan sog'lom bo'lishi shart. Bolani jismoniy rivojlanishini aniqlashda uning bo'yi va vazni ham hisobga olinadi. Bunga ko'ra, o'g'il bolalarning vazni 21 kg., qiz bolalar

vazni 21,6 kg., o'g'il bolalar bo'yi 117 sm., qiz bolalar bo'yi 118 sm. bo'lishi Nizomda belgilangan. Lekin ota-onalar buni tushunishni istashmaydi. Natijada ko'rik a'zolariga e'tirozlar ko'paymoqda.

– **Bola qanday mutaxassis tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi?**

– Tibbiy ko'rikdan o'tkazish tor mutaxassis shifokorlarining vazifalari hisoblanadi. Pediatr, nevropatolog, stomatolog, endokrinolog, logoped va psixonevrolog kabi mutaxassislar o'z sohalari bo'yicha 6 yoshli bolani sog'lig'ini tekshiradilar. Agar bolada 1-sinfga qabul qilishga monelik qiluvchi kasalliklar bo'lsa, sog'lomlashtirish rejalarini ishlab chiqib, bolani davolash

(Boshi o'tgan sonlarda.)

Oymomo tom boshiga kelib o'tirib olgandi.

Narvonning tepadagi Usta Husan deb atalgan poyasi qizishib ketganidan Oymomoning kelib o'tirganini ham payqamay, o'zini-o'zi maqtayverdi: uning aytishiga qaraganda, yuksaklikda va viqorda dunyoda unga teng keladigani yo'q ekan: pastki pog'onalarda turadiganlar unga qancha xizmat qilishsa oz ekan, u shunga arzirkan, u yuksakda turgani uchun tomlardagi lolaqizg'aldoqlarning, chuchmomalarning hid-bo'yidan bahramand bo'la olar ekan, kerak bo'lsa, bulutlar bilan so'ylasharkan.

Oymomo uning gaplaridan astoydil hayratga tushdi.

Qani, bir sinab ko'ray-chi, deb uni savolga tutmoqchi bo'ldi:

– Ho-oy! – deya sekingina chaqirdi.

Ammo uning ovozi hamma Hasan-Husanlar eshitishdi.

Husan tevarak-atrofga alangladi.

– Ko'p alanglayverma, seni chaqiryapman, – dedi Oymomo.

– Kimsan? – dedi Husan uni tanimay.

Shoyim BO'TAYEV

TUNGI SUHBAT



– Men har qancha yuksaklikda yashasam-da, Yerdan past turadigan Oyman, – dedi Oymomo.

– Xo'sh, menda qanday gaping bor?

– Otang kim?

Husan javob berolmadi.

– Onang kim? – so'radi Oymomo.

Husan javob berolmadi.

– Yaratuvching kim? – so'radi Oymomo.

Husan javob berolmadi.

– Sening otang – Yer, – dedi Oymomo. – Endi ayt-chi, otang – Yerdan ham balanddamisan?

– Albatta-da, – dedi Husan o'ylanib o'tirmay. – Yerga tushishing uchun beshta Husan-u, oltita Hasanni bosib o'tish kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turib-diki, u mendan ancha pastda joylashgan.

– Sening onang – Qoratol, – dedi Oymomo. – Endi ayt-chi, onang Qoratoldan ham yuksakdamisan?

Husan o'ylanayotgandek turib qoldi. Shunda atrofdagilar, endi u o'zining Qoratoldan qanchalik pastdaligini, ham ruhan, ham ma'nau, ham jismonan undan nechog'li kichkina-mittiligini

tasavvur etib, o'z gaplaridan uyalayotgan bo'lsa kerak, degan xayolga borishdi.

Lekin shu chog'da Husan:

– Qoratol nima bo'пти? – deb qoldi.

Atrofdagilar hang-u mang bo'lishdi.

Husandan qanday gap chiqsayam, bunaqasini kutishmagandi-da.

Axir Qoratol unga Ona edi!

Onagayam shunday deydilarmi?

E, attang...

– Qanchalik o'sib-yuksalmasin, Qoratol baribir bir kunmas bir kun qulaydi yoki uni kesib ketishadi, – so'zida davom etdi Husan. – Hozir ham e'tibor berib qarasalaringiz, ilgarigiga nisbatan uning ancha cho'kib qolganini ko'rasizlar. Shunday ekan, albatta, men Qoratoldan yuksakdaman-da! Axir bu men-a! Me-en bu! O'n bir pog'onani dog'da qoldirib yuksalishning o'zi bo'ladi? Bilib qo'yinglar, bu hammaning ham qo'lidan kelaver-maydi.

– Sening yaratuvching Usta bo'ladi, – dedi Oymomo. – Hali dunyoda o'z yaratuvchisidan ham ulug' hech kimni ko'rmadim. Endi ayt-chi, Ustadan ham

(Davomi 6-betda.)

Ota-onalar, nega jimsiz?

Yozgi ta'til... Farzandingizning bo'sh vaqti ko'p. Tasavvur qiling, ishdan kelsangiz, bolangiz odatdagiday divanda o'tirib televizor ko'rayotgani yo'q. Berilib gazeta o'qiyapti. Qani endi shunday bo'lsa, deysizmi?! Axir bu o'zingizga bog'liq-ku! Ishdan qaytishda bolangizga hech gazeta olib kelganmisiz? Aslida gazeta-jurnalni bolaga tanitadigan ham eng avvalo, siz – ota-onalar-ku! Gazetani avval o'zingiz o'qib chiqib, qiziqarli maqolalarini gapirib bering va uni ko'rinarli joyga

qo'ying. Qani, bolangiz o'qimasmikin? O'qiydi. Ishdan kelganimda o'qiganlarini gapirib berasan, deydigan ota-onalar, afsuski, juda ozchilik. Nimagadir ota-onalar bizga juda kam maktub yozishadi. Ular bolalar va o'smirlar nashrlari borligini bilishmaydi yoki...

Keling, bu haqda yaxshisi ularning o'zlaridan so'rab ko'ramiz:

Rahima SAFOYEVA, uy bekasi:

– Qizim 8-sinfda o'qiydi. Maktabdan gazeta-jurnal olib kelib turadi. Ammo tan olishim kerak, unga kamdan-kam bolalar nashridan sotib olib kelganman. Lekin maktabda obunaga pul yig'lsa, doim qo'lga pul tutqazaman. Bolalar uchun mo'ljallangan nashrlarni farzandlarimiz bilan birgalikda o'qib borsak yaxshi. Lekin lotin tilida bosilgani uchunmi, ularni o'qiy olmayman. Biz ota-onalarga nisbatan bildirayotgan e'tirozingiz asosli. O'ylashimcha, bizga hafsala yetishmaydi. Ba'zan bolalarimiz tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermaymiz-u, yana ularning «zo'r bola» bo'lishlarini istaymiz...

Aziza G'YOSOVA, O'zMU talabasi:

– Bolaligimda uyimizda doim gazeta-jurnal bo'lardi. «Tong yulduzi», «G'uncha»ni o'qib,

«Saodat» jurnalidagi «Roston buvining o'gitlari»ga quloq tutib, «Mushtum»ning kulgili suratlarini tomosha qilib katta bo'lganman. Kitob o'qigan bola boshqacha bo'ladi, deyishadi, to'g'ri ekan. Maktabda eng namunali o'quvchi bo'ldim, litseyimizdagi tadbirlar ham mensiz o'tmasdi. Universitetning ham a'lochi talabasiga aylandim. Bularning bariga ota-onam tufayli erishdim. Tarjimai holimda ziyoli oiladanman, deb yozaman. Ota-onam shunday insonlar ekanidan faxrlanaman.

Kattalar, e'tibor bering!




Xitoylik ota-onalar dam olish kunlarini asosan bolalariga bag'ishlashar ekan. Bizda esa ko'pgina ota-onalar borki, dam olish kunlari mehmondorchilig-u yig'inlardan bo'shmaydi. Bir dono ota vafotidan avval bolalariga: «Men sizlarga hech narsa qoldirayotganim yo'q. Ammo o'qitdim, odam qildim. O'qigan odam esa hech qachon xor bo'lmaydi»,

degan ekan. Ilm-ma'rifatni ota-onalar qadrlashmasa, bolalardan buni kutish qiyin. Biz kimnidir tanqid qilmoqchi emasmiz, shunchaki, ota-onalar – sizlarga murojaat qilmoqchimiz...

Bolangiz uchun, ertaga uning komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun biz bilan hamkor bo'lasiz, degan umiddamiz. Gazetamiz orqali farzandingiz bilan bog'liq qanday muammolarni hal qilishni istardingiz? Yoki bolalar uchun qanday qiziqarli maqolalar, sahifalar tayyorlanishini xohlaysiz? Bizga maktub yo'llang. Obuna orqali esa bolangizning muntazam ravishda gazeta-jurnallar o'qib borishini ta'minlasangiz, uning dunyoqarashi keng inson bo'lishi uchun zamin yaratgan bo'lardingiz. Zero, ular sizning, bizning kelajagimiz.

Sayyora JO'RAYEVA,
Muxlisa MIRZAYEVA



MAZMUNLI HORDIQ

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 207-, 225-, 32-, 112-maktablarida oromgohlar tashkil qilindi.

Oromgohda 12 kundan har mavsumda 500 nafar bola dam oldi. Bundan ota-onalar xursand. Bu oromgohni tashkil etishda tuman mahalla jamg'armasi, homiyilar, «Kamolot» YOIH tuman hokimiyati homiylik qilishdi.

Oromgohda hamma sharoitlar muhayyo. Kutubxona, sport hamda turli yo'nalishdagi qiziqarli to'garaklar bolalar ixtiyorida. Shifokorlar, qo'li shirin oshpazlar ular xizmatida. Bolalarning eng sevimli «Neptun» bayrami, «Biz O'zbekiston farzandlarimiz», «Giyohvandlikka yo'l yo'q», «Yo'l harakati intizomni yoqtiradi», «Menga o'z haqingda gapirib ber», «Maqollar fabrikasi», «Quvnoq startlar», «Oromgoh malikasi», «Quvnoqlar mamlakatiga sayohat» kabi qiziqarli tadbirlar o'tkazishdi.

Shuningdek, hayvonot bog'iga, «Botanika» bog'iga, «Gulshod» madaniyat bog'iga, «Umid» sport kompleksiga, qolaversa, shahrimizning e'tiborga sazovor joylariga sayohat uyushtirildi.

Bir so'z bilan aytganda, bolajonlarning yozgi ta'tili maroqli o'tdi.

SH.ASRANOVA,

3-ma'naviyat-ma'rifat
tuman targ'ibot kengashi tarbiyachisi

Quvnoq yozim o'tar soz!


Ko'p do'stlar orttirdim. Dugonalarim Sayyora, Muxlisa va Dilrabo bilan vaqtim juda soz o'tdi. To'garaklar, kutubxonadagi badiiy kitoblarni o'qib, bilimlarimiz kengaydi. Turli musobaqalarda faol qatnashgan dugonalarimdan Muxlisa shashka bo'yicha, Sayyora shaxmat bo'yicha faxrli birinchi o'rinni olib taqdirlandilar. Soy Ira yengil atletika, Mohira esa yugurish bo'yicha, Aida basketbol bo'yicha birinchi o'rinni oldilar.

Bizning 4-guruhimiz barcha ko'rsatkichlar bo'yicha g'olib chiqqanidan rosa quvondik.

Men va Dilrabo musobaqa va tadbirlarda faol ishtirok etganimiz uchun «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandik. Oromgohdagi o'tgan o'n besh kun orasida men o'z kun tartibimni ham tuzib oldim. Ertalabki badantarbiya mashqlarida chiniqdim.

Oromgohimiz tog'lar orasida joylashgani tufayli musaffo havo bizni yana-da tetiklashtirdi. Endi ancha bilim va sog'lom bo'lib uyga qaytaymiz. O'ylaymanki, kelgusi yili yana «Quyoshli» oromgohi bag'riga dam olish uchun albatta kelamiz.



Shahnoza YUNUSOVA,
Toshkentdagi 17-maktabning
8-sinf o'quvchisi



Respublika Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga qarashli «Quyoshli» oromgohi Chimyon qishlog'idagi so'lim go'shada joylashgan. Bu yil yozgi sog'lomlashtirish mavsumida oromgohda mingdan ziyod bola mazza qilib dam oldi. Qoraqalpog'istonlik 300 ga yaqin bola ham bu yerda yaratilgan qulay shart-sharoitlardan bahramand bo'lishdi. Saxiy quyosh, billurdek toza havo, zilol suv bag'rida miriqib hordiq olgan bolalar uzoq yillar «Quyoshli» oromgoh haqidagi xotiralarini so'zlab yurishadi.

– Men bu oromgohga birinchi bor kelganimda, to'g'risi, ozgina bo'lsa-da, hayajonlandim. Ammo bu yerdagi sharoitlar va maroqli hordiq meni juda quvontirdi.

OLTIN GO'SHAM «QUYOSALI»



Maroqli suhbat

Hech kuzatganmisiz, maktab davrida qizlarimiz har sohada – o'qishda ham, jamoat ishlarida ham juda faol bo'lishadi va tez orada o'qituvchilarning «o'ng qo'li»ga aylanishadi. Keyinchalik aksariyatida bu faollikdan asar ham qolmaydi.

Lekin shunday qat'iyatli qizlarimiz ham borki, o'z oldilariga qo'ygan maqsad sari intilib yashaydilar va albatta unga erishadilar.

Suhbatdoshimiz Muxtabar opa Karimova ham o'z tahsil olgan 102-maktabning eng faol o'quvchilaridan bo'lgan.

– O'qituvchilar sulolasidan bo'lsam-da, ijodkorlikka mehrim bo'lakcha edi, – deya shirin xotiralarga beriladi opa. – Bolalar va yoshlar nashrlarida o'z maqolalarim bilan qatnashib turardim. Teleoperator bo'lib dunyo kezishni orzu qilganman. Bu kasb egasi bo'lmasam-da, 22 mamlakatni ko'rish baxtiga muyassar bo'ldim...

Dunyoning 22 mamlakatida bo'lish hazil gap emas-a, aziz bola-



CHIQAISHSIN

jonlar?! Borganda ham shunchaki sayohatga emas, mukofot olish, tajriba almashish maqsadida borishning o'zi bir baxt!

Uzoq yillar davomida kinofilmlarni ijaraga berish boshqarmasi qoshidagi «Kino» jurnaliga muharrirlik qilgan Muxtabar opa 1991-yilda birinchilardan bo'lib «Samandar» nomli o'zbek-hind qo'shma korxonasini ochdi. «Film S» mustaqil jurnaliga muharrirlik qildi.

2000-yilda Fransiya milliy Assotsiatsiyasi tomonidan «Oltin medal» sovrini bilan taqdirlandi. Istiqlol bayrami arafasida opa bilan jamiyat hayotida xotin-qizlarning faolligi xususida suhbatlashdik.

– Yuqoridagi fikringizda jon bor, – deya mulohaza qiladi opa. – Lekin nozikkina, yelkasiga oila tashvishlarini, davlat xizmatini «ortib» kelayotgan ayollarimiz ham juda ko'p. Ayrim chet el davlatlariga nisbatan bizda ayyollar ko'proq mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatisharkan. Jamiyat hayotida faol ishtirok etib, yurtimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shib kelayotgan onaxonlarimiz, opa-singillarimiz haqidagi «Ayol yaratgan dunyo» nomli kitobimizning ikkinchi to'plami mustaqilligimiz to'yiga to'yona bo'ladi.

– Tahririyatimizga maqola va xabarlar ko'tarib kelayotgan yoshlarimizning aksariyatini qizlar tashkil qiladi. Jurnalistikaga mehr qo'ygan qizlarimizga maslahatlaringiz...

– Ana shunday qizlarimizni jamlab, bir maktab tashkil qilishni, keksa jurnalistlarimiz ishtirokida mashg'ulotlar o'tkazishni rejalashtirgandim. Afsuski, qalamkash qizlarimiz bir-ikki bor ko'rinib, qaytib kelishmayapti. Maqolalarida ham qandaydir sayozlik, notugallik bordek, fikrlari tarqoq.

Maslahatim – ustoz jurnalistlarimiz tajribalarini o'rganishsin, o'zbek jurnalistikasiga zamonaviy ruh olib kirishsin...

Bizning niyatimiz ham shu: ijodkor qizlarimiz nafaqat oilaga, balki jamiyatga ham nafi tegadigan insonlar bo'lib kamol topishsin. Ko'proq o'qib, uqib, izlanib, yurtboshimiz orzulaganlaridek dunyolarga chiqishsin.

Feruz JALILOVA suhbatlashdi

SEVIMLI GAZETAMIZ



«Tong yulduzi» gazetasi Qashqadaryo viloyati o'quvchilarining sevimli gazetasi hisoblanadi. Viloyat bo'yicha 1099 ta maktab mavjud bo'lib, o'quvchilar soni 585111 nafarni tashkil etadi. O'quvchilar intiqib kutgan «Tong yulduzi» gazetasi ustozlar boshchiligida mutolaa qilinadi. Gazeta nafaqat maktablarda, balki 401 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida, 22 ta bolalar sport maktabida, 42 ta maktabdan tashqari muassasalarning birida o'z o'quvchilarini qo'liga yetib kelmoqda. Bundan keyin ham Respublika bolalari va o'smirlarining yagona nashri «Tong yulduzi»ni intiqlik bilan kutamiz.

Sevin OCHILOV,
Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi «Axborot xizmati» markazi boshlig'i

Qo'ng'iroq

«TONG YULDUZI» HAR BIR SINFGA KIRIB BORSA...

Obuna mavsumi yaqinlashayotgan bir pallada Sirdaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Xalil To'rayev bilan telefon orqali bog'landik.

– Viloyatimizda 305 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ularning 230 tasi zamonaviy, 75 tasi moslashtirilgan binolarda joylashgan. Jami 146283 nafar o'g'il-qizlar ta'lim-tarbiya oladi. Ta'lim o'zbek, rus, qozoq, tojik tillarida olib boriladi.

Biz farzandlarimizni bilimdon va ma'rifatli bo'lishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilganmiz. O'qituvchilarimiz ham bolajon. Ularning 72 foizi oliy ma'lumotlidir. O'z o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, jumladan, kitob, gazeta va jumallar mutolaa qilishlarini doimo kuzatib boradilar. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'qib, o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar.

Mazkur yilda viloyatimiz bolalari «Tong yulduzi» gazetasiga ko'proq obuna bo'lishga intilishdi. Qani endi gazeta har bir sinfga hech bo'lmaganda bittadan kirib borsa... Bu bizning – barchamizning ham yutug'imiz. Nasib bo'lsa, 2008-yilda «Tong yulduzi» gazetasining obunasini yana-da yaxshi tashkillashga harakat qilamiz.

FERUZA

Maktabimiz Beshariq tumanidagi eng katta bilim maskanlaridan sanaladi. O'quvchilarimiz ma'naviyatli, bilimga chanqoq o'g'il-qizlardir. Buni har yilgi obuna mavsumini o'quvchilarimizning o'zlari tashkillashtirishlaridan ham bilsa bo'ladi. Ularning aksariyati faqat «Tong yulduzi»ga yozilishadi. Sababi, gazetada ularning yoshiga, qarashlariga mos

HAVAS QILIB,

bo'lgan ko'plab maqolalar e'lon qilinadi-da. Maqolalarni diqqat bilan o'qigach, odob-axloq, ta'lim-tarbiya xususidagilarini tarbiyaviy soatlarda muhokama qilib, bahs va munozaraga kirishishadi. She'rlari, hikoyalari chop etilgan tengdoshlariga havas qilib, ijod qilishadi. Mana shu maqolalar tufayli o'quvchilarda, tabiiyki, yaxshi tomonga o'zgarishlar bo'ladi. Shu ma'noda men «Tong yulduzi»ni tarbiyachi deb atagan bo'lardim. Yuqorida ta'kidlaganimdek, maktabimiz juda katta bo'lsa-da, o'n yillardan buyon o'quvchilarimiz orasida tartibbuzarlik holatlari ro'y bergani yo'q. Bunday yutuqqa erishishimizda gazetaning ham munosib hissasi bor, albatta. Shunday ekan, uning muxlislari sonini oshirishimiz



«Obuna – 2008»

IJOD QILISHADI

boshlanadi. Ta'til kunlarida ham to'garak mashg'ulotlarini kanda qilmayotgan o'quvchilarimning ahdlari qat'iy, ular albatta «Tong yulduzi»ga yozilishmoqchi.

Qosimjon SOLIYEV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
33-maktabning ma'naviyat ishlari
bo'yicha rahbar o'rinbosari

SAYOTIM

Sayoqush avlodi yashar bu yerda,
Yigitlari marddir, qizlari moxtob.
Yo falak, shunchalar nazar solganmi,
Tanti bu elimning har so'zi kitob.
Sayotim – gulshanim, bog'-u bahorim,
Men seni har qancha ta'riflasam oz.
Dunyoda o'zimni baxtli bilardim,
Munosib farzandim deyolsang, xolos.
Matluba EGAMBERGANOVA,
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi
16-maktabning 8-sinf o'quvchisi

VATAN NIMA?

Vatan nima? Boshpana,
Sen tug'ilgan nurxona.
Quvonch bilan ilk bora,
Bag'riga olgan ona.
Vatan nima? Qishlog'ing,
Jo'shqin soying, toshlog'ing.
Gohi dasht, keng dalalar,
Bol mevali gulbog'ing.
Vatan nima? Tili bir,
Yaxshi-yomon kuni bir.
Bor-u yo'qda holi bir,
Ahil-inoq elingdir.

Toshpo'lat XOLMATOV,
Toshkent viloyati,
O'rtachirchiq tumani,
Changtepa qishlog'i

Tengdoshlaring ijodi**BOBOMEROSIM**

Yerda qaynar ekan hayot bulog'i,
Ezgulik qalblarda toparkan kamol.
Toki porlar ekan umrim chirog'i,
Vatanim, yasharsan topmasdan zavol.

Kamalak go'zaldir, lek sochmas ziyo,
Quyosh nurlari-la bezaydi tanni.
Men-da orom tomon boqmasman qiyo,
Agar gullatmasam aziz Vatanni.

Vatanim, men ham bir o'g'loning bo'lib,
Poyingga hayotim nisor etaman.
Rivojingni ko'rib, quvonchga to'lib,
Ezgu murodimga shunda yetaman.


Insonning beqaror ekanligi rost,
Ko'ngilga yoqmasa, shakar ham taxir.
Ona yurt! U menga bobomerosdir,
Hech kim vatanini tanlamas axir!

Bulbullar serobdir yurtim bog'ida,
Unga zarur emas o'zganing zog'i.
Tilagim, paymonam to'lgan chog'ida,
Ko'zlarimga to'lsin Vatan tuprog'i.

Sharof AHMATOV,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
78-maktab o'quvchisi

YO'L QOIDASI – UMR FOYDASI

Har ishda bor qoida,
Amal qilsang – foyda.
Piyodaga tratuar,
Mashina yo'ldan yurar.
O'tma kesib ko'chani,
Xavfga qo'yib barchani.
Qoidaga qil amal,
Shoshib yurma hech mahal.
Bo'lay desang sog'-omon,
Unutmagin hech qachon.
Harakat qoidasi,
Yodingda bo'lsin har on.

**MENING ORZUIM**

She'rlar mashq qilaman,
Chizishni ham bilaman.
Maktabim jon-u dilim,
Astoydil olay bilim.

Hozircha sog'ulg'ayib,
Kuch-quvvatga to'laman.
Ulg'aygach, o'z haqimning,
Shoir qizi bo'laman.

Sarvinoz RUSTAMOVA,
Toshkent shahridagi 241-maktabning
6-«A» sinf o'quvchisi

(Boshi 3-betda.)**Shoyim BO'TAYEV****TUNGI SUHBAT**

o'zingni ulug' hisoblaysanmi?

– Albatta-da! – dedi Husan o'yab-netib o'tirmay.

Uning bu xitobidan atrofdagilar chuvillashib yuborishdi. Chunki Ustaga nisbatan bunaqa shakkoklik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. Nimaligi noma'lum-u, ammo ko'ngilsiz biror hodisa ro'y berishi muqarrarligi ko'rinib turardi Husanning javobidan.

– Sen dunyodagi eng yomon kasalga yo'liqibsan, – dedi Oymomo Husanga. – Tepaga chiqvolib, manmansirashing menga juda ko'p ilgarigi voqealarni eslatdi. O'zingni

to'g'rilamasang, oxiri baxayr bo'lmaydi.

FALOKAT

Shu gaplarni aytib, Oymomo osmonga havolab ketdi.

Bostirib kelayotgan qop-qora, vahimali, quyuq bulutlar oralab Oymomo osmonga chiqib ketib, o'zini yashirdi. Osmon qozonida bodragan yulduzlar ham ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Chaqqoq chaqdi.

Momaqaldiraq gumburladi.

Chaqqoq chaqqanda tom boshida qo'qqayib turgan narvon poyasi Husanni yaqqol yorishtirib, birov uning kimligini yaxshilab ko'rib olmoqchiday bo'lardi.

Uyam manaman, deb turardi.

Osmon kuchlari bilan yolg'iz baqamti turishga qodirday ko'rinardi. Aslida u hech narsa emas, yarim quloqlik oddiy yog'och edi. Usta mahoratining sharofati bilan tom boshiga chiqib olish unga nasib etgan edi. Osmon kuchlari uni emas, Ustani yaxshi bilishardi.

Yana chaqqoq chaqdi, momaqaldiraq gumburladi.

Ammo bu galgisi shunaqayam kuchli va vahimali ediki, hammayoqni zirillatib, titratib yubordi.

Avval yomg'ir, keyin jala quya boshladi. Do'l urdi. Ora-chora chaqqoq chaqib, momaqaldiraq gumburlab turardi.

Keyin do'l aralash yomg'ir chelaklab quya boshladi va shundan so'ng falokat ro'y berdi...

ERTALAB

Ertalab quyosh chiqdi.

Hammayoq xalqob-xalqob, ko'l-mak-ko'lmak suv edi. Quyosh chiqmasdanoq borliq uyg'ongan, uning daragini eshitib, qushlar chuldirashini boshlab yuborishgan edi.

Tevarak-atrofdan hamma narsa tiniqqan, dov-daraxtlar cho'milib olganidan yashnab-yaltirab turishar, mo'rillardan ko'kka oppoq tutun o'r'lamoqda edi. Ammo nimadir yetishmayotgandek, nimadir kecha bor-u bugun yo'qdek tuyulmoqda edi. Ko'p o'tmay buning nimaligi ayon bo'ldi. Bu – Ayiq odamning kulbasi edi. Tungi yomg'ir-do'llarga dosh berolmay qulab tushgan edi. Devorlargina qo'qqayib turishardi. Eshikni sindirib, bir uyum loy-

tuproq va xas-xashaklar orasidan Ayiq odamni sudrab chiqishdi. Uning o'lik-tirikligi noma'lum edi. Zambilga solib allaqayoqqa olib ketishdi. Narvon bo'lsa, suv havzasiga sakrayotgan g'avvosdek kulba vayronasiga sho'ng'ib turar, tepada uning ozgina qismi, ikki-uchta poyasigina ko'rinib turar, bu poyalar Hasanlar bo'lib, ulargina shikastsiz qolgandi.

Usta keldi.

Bosh chayqadi.

Uch-to'rt kishilashib narvonni tortib olmoqchi bo'lishdi. Narvon chiqmadi. Vayronalar orasida ham qandaydir bahaybat bir kuch uni o'zi tomon tortib turganday edi.

Bu kuch Ajal bo'lgan ekan.

Qo'yvormay turarkan.

Tortayotganlarning jahllari chiqdi. Ular ko'plashishdi. Yanayam ko'plashishdi. Butun qishloq ahli ko'maklashib, narvonni Ajal komidan tortib olmoqchi bo'lishdi.


Axiyri, narvon sug'irilib ketdi.

Ammo uning yarmi yo'q edi. Husanlar qismi vayronalar orasida uzilib tushgan edi. Usta endi olti poyali bo'lib qolgan narvonni ko'targancha uyga jo'nadi.

(Davomi bor.)

OZ-OZ O'RGANIB, DONO BO'LUR

*Qadrli ukajonlar! O'smir yigit-qizlar!
Bugun sizlar bilan Ona zamin, Vatan tuprog'i haqida
suhbatlashamiz. Eski mavzu ekan, deb beparvo qaramang. Bu
biz uchun eng muqaddas tuyg'ular. Shunday ekan, har gal bu
to'g'rida suhbatlashganingizda, yangi bir gap, yangi mavzu
topasiz. Quyidagilarni o'qib ko'ring, ularning oltindan qimmat
ekanligini yana bir karra anglaysiz.*



ONA O'GITI

Toshkentdagi oshxonalarining birida tushlik qilib o'tirgandik. Do'ppi kiygan muloyim kishi bizga sherik bo'ldi. Tanishdik. Toyloq tumanidan ekanlar. Dala odami. Bilsangiz, bunday odamlar to'g'riso'z, oddiy va kamtar bo'ladilar. Suhbatimiz dalaga borib

taqalganda, u kishi:

–Yoshligimda onam: «Yerni aldama, bolam, yerni aldaganing biri ikki bo'lmaydi», degan edilar. Bugun shu gapga amin bo'lib turibman. Kimki yer bilan odamday tillashayotgan bo'lsa, rejasini oshirib bajaryapti, kimki g'irromlik qilib, yerga qaramay urug'dan urib qolayotgan bo'lsa, biri ikki bo'lmayapti.

– O'zlarida qalay?– deb so'radik.

– Onamning o'gitlariga amal qilib, kam bo'layotganim yo'q! – deya javob qildilar.

O'ZI BIR SO'Z, MA'NOSI HAR XIL

«UCH» SO'ZI HAM 3 XIL MA'NOGA EGA

Aziz yoshlar!

Tilimizda shunday so'zlar borki, ular bir necha ma'noni anglatadi. Masalan, «ot» so'zini oling:

1. Ot – biror narsani uloqtir.

2. Ot – o't och.

3. Ot – ism, nom.

1. Uch – sanoq son.

2. Uch – baho.

3. Uch – parvoz qil.

Darvoqe, tilimiz sinonimlarga juda boy. Bu til bilan har qancha faxrlansangiz arziydi. Unda istagan fikringizni, holatingiz va tuyg'ularingizni lo'nda, sodda, ammo juda go'zal ifoda etishingiz mumkin. «O'zbek tilida yaxshi fikr va tuyg'ularni ifoda qilib bo'lmaydi, degan iborani Alisher Navoiy bundan besh yuz yil burun tor-mor qilgan». Abdulla QAHHOR.

«Jonim bolam, seni jonimni fido eta oladigan darajada sevaman. Menga gul terib kelib, gul solib qo'yilgan guldonni sindirganingda, nega jahlim chiqqanini bilasanmi? O'zingga zarari tegishidan qo'rqqanim uchun... Sen men uchun dunyodagi barcha gullardan azizroqsan!»

Eren GURAKAR

«OLTIN OLMA»NING XUSUSIYATLARI

Pomidorni «Oltin olma» deb ataydilar. Dastlab, uni zaharli deb yemaganlar. Yevropa mamlakatlarida bu o'simlikni tuvakka ekib parvarishlaganlar. Chunonchi, pomidorning xom donida «tirozin» degan zaharli modda bo'lib, tuz sepmay yesa, me'daga noxush ta'sir etadi. Shuning uchun ham sigir uni yemaydi.

Ispaniya Peruni bosib olgach, pomidor Yevropaga keltirilgan. Yunoniston orqali Turkiyaga o'tgan. 1850-yilda Qrimda tarqalgan. Bu yerda uni «Muhabbat olmasi» deb ataganlar. XIX asrning 70-yillarida esa bizning hududlarda ham pomidor iste'mol qilina boshlandi.

SHOHRUHNING G'ALABASI

Shohruh Asrorxo'jayev 7 yoshda. Poytaxtimizdagi 43- maktabda tahsil oladi. 5 yoshidanoq sport bilan shug'ullana boshlagan Shohruh yaqinda tengdoshlari orasida jahon chempioni bo'ldi.

Bir kuni bolalar bog'chasiga sport murabbiyi keldi.

– Kim chempion bo'lishni xohlaydi? – so'radi bolalardan.

– Men, men, – deya baravariga javob qaytarishdi barcha o'g'il bolalar. Bu holdan mamnun bo'lgan murabbiy shu kuniyoq bog'chaning sport zalida mashg'ulotlarni boshlab yubordi. Hatto bog'chaga bormayman, deb xarxasha qiladigan Iskandar ham endi har kuni onasini «Tezroq bo'ling, bog'chamga kech qolyapman», deya shoshiradigan bo'ldi.

Hash-pash deguncha oradan bir yil o'tdi. Bolakaylar maktabga qadam qo'yishdi. Shohruh sport mashg'ulotlarini maktabda ham davom ettirib, murabbiyi – 3 Dan qora belbog' sohibi Aziz Xayrullindan sportning taekvando turida saboq ola boshladi.

Shohruhning birinchi musobaqasi qadimiy shahar – Samarqanddan boshlandi. Sport musobaqasida muvaffaqiyatli qatnashib, uyiga oltin medal bilan qaytdi. Poytaxtda o'tgan respublika ochiq chempionatida ham yana bir oltin medalni qo'lga kiritdi. Oradan bir yil o'tib, Farg'onada o'tadigan 6-8 yoshli karatechilar chempionatiga bordi.

Kuchlilar orasida kuchli bo'lgan Shohruh Italiyada

o'tkaziladigan karatening taekvando turi bo'yicha kichkintoylar ochiq chempionatiga yo'llanma oldi.

Italiya, Rossiya, Malayziya, Germaniya, AQSH kabi davlatlardan kelgan tengdoshlari bilan bellashdi va jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Madhiyamiz yangradi. Shohsupaning eng yuqorisida

madhiyamiz kuyiga jo'r

bo'lib turgan Shohruh:

«Chempion bo'ldim, nasib

bo'lsa, hali olimpiya

chempioni ham bo'laman»,

deya niyat qildi. Bugungi kunda

Shohruh Asrorxo'jayev 2 ta oltin va 1

ta kumush medal sohibi. Shuningdek,

O'zbekistonning eng yosh jahon

chempionidir.

Aytganday, Shohruhning

bog'chadagi o'rtoqlari-chi, deysizmi?

Ha-ya, ular tengdoshi Shohruhga havas

qilib, hozirda sport bilan muntazam

shug'ullanishni boshlab yubordilar.

Ma'mura MADRAHIMOVA



ASAD OYINI BILASIZMI?

Bobongiz yo momongizning: «Asad oyi ham tugayapti», degan gaplarini eshitgandirsiz? «Asad» o'zbekchada «Arslon» demakdir. Bu oy 23-iyuldan 22-avgustgacha davom etadi. Asadning so'nggi haftasi quruq kelsa, kuz yaxshi bo'ladi.

Oyning ikkinchi o'n kunligida cho'l qushi – qorabovurlar to'da bo'lishsa, kuz erta boshlanadi.

Dehqonlar bu oyning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga harakat qiladilar. «Asad – ekingingni yasat!» degan gaplar shundan qolgan bo'lsa, ajab emas.


Asaddan so'ng, ya'ni 23-avgustdan boshlab Sumbula boshlanadi. Bu to'g'rida keyingi sonlarida to'liq ma'lumot beramiz.

QANDAY KULMOQ YAXSHI?

«Nomusni yoshlikdan ehtiyot qil», degan maqol bor. Dunyoda yaxshi-yomon odatlar ko'p. Qanday kulmoq yaxshi? Buni bilib qo'ysangiz, yomon bo'lmaydi.

Har kim qattiq ovoz bilan qahqaha otib kulsa, bunday kishi nodon va behayo sanaladi, kulganda past ovoz bilan kuladigan kishi andishali, hayoli va xushxulq, vazmin bo'ladi. Ayol-qizlarning qattiq kulishi uyat hisoblanadi.

Kitob javoningizga



«BOLAJON» SIZLAR UCHUN

«Feruzaxonning she'rlari, jaji hikoyalarini gazetalarda o'qib yurardim. Endi esa ularni to'plam holda ko'rib, xursand bo'ldim. Feruzaxon ajabtovur bolalar shoirasi.

She'rlari ravon, o'qimishli. Ayniqsa, bolalar hayotidan olib yozilganligi o'rinli. Ko'plarida she'r uchun eng zarur bo'lgan yakun, ya'ni qissadan hissa bor. Ba'zilarida nim kulgu, bolaning

tuzalishi – to'g'ri yo'lga tushishi uchun jindek tanqid, dakki ham uchraydi. Ayrim she'rlarida mehribonlik bilan bolajonlarga nasihat ham qiladi, onajonlarday.

Men shoiramizning ijodga imkoniyati, yaxshi niyati borligini sezgan holda oq yo'l tilayman, mana shunday kitoblari sonini yana-da ortishini istayman», deb marhum O'zbekiston xalq shoiri Po'lat MO'MIN oq yo'l tilagan edilar.

Qadrli bolajonlar! Uzoq yillardan buyon «Tong yulduzi» gazetasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Bosh muharrir o'rinbosari Feruza Jalilovani hikoya va she'rlari, tahliliy, tanqidiy maqolalari orqali juda yaxshi taniysiz. Uning 2004 - yili chop etilgan «Mahallamiz bolalari» she'riy to'plamini ham quvonch bilan kutib olgandimiz. Bu haqda o'z maktublarimizda yozgansiz.

Yaqinda tahririyatimizda yana bir quvonchli voqea ro'y berdi. «Sharq» nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan Feruza opangizning «Bolajon» nomli yangi she'riy to'plami bosmadan chiqdi. Rangli tasvirda, 5000 nusxada chop etilgan ushbu to'plam ham Sizga ma'qul bo'ladi va kitob javoningizdan munosib o'rin oladi, degan umiddamiz.




HAYVONOT BOG'IDAGI SUHBAT

– Boqishlaring mungli, o'ychan,
Xayollaring parishon,
Qalbing o'rtar qanday armon,
Darding olay, onajon!

– Ozod bo'lsak, deyman bolam,
O'tinchim shu yagona.

– Ozodlik bu o'zi nima?
Bu so'z menga begona...



«YANGI QIZ»

Uchinchi «B» sinfga,
Yangi o'quvchi keldi,
degan ajib xushxabar,
Zumda har yon yoyildi.

«Yangi qiz»ni ko'ray deb,
Shoshib kirdim xonaga.
Qizcha bo'lsa iymanib,
Termulardi oynaga.

Ismi surishtirsam,
– Nozima, – dedi asta.
– Nimasi yangi? – deya
O'yga toldim birpasda.

Ko'chamizda bir talay,
Nozimalar yashaydi.
Papkasi, lentasi ham,
Biznikiga o'xshaydi.

Boshdan-oyoq termulib,
Yonidan ketolmayman.
Nechun «yangi qiz» derlar,
O'yimga yetolmayman...

Qo'rqoqning bahonasi

– Oyi, oyijon, menga,
Yaqin yoting, – der Noim.
Men-chi, juda ajoyib,
Tushlar ko'raman doim.
Tushlarimga sizni ham,
Sherik qilaman shunda.
Mazza qilib kulasiz,
Qiziq tush ko'rib tunda.

Темирга бой
Унни
Саломатлик
гарови!

Unni
boyitish bo'yicha
milliy dastur


«NONPOLVON» BILAN YOZGI TA'TILDA

kamqonlikni davolashga bel bog'laganman. Oziq-ovqat do'konlari, oshxona, oilaviy poliklinikalar devorlari-yu un tashiyotgan maxsus sariq rangli mashinalar ustida mening tasvirimga tez-tez ko'g'zingiz tushayotgani behudaga emas...

Respublikamizda keyingi yillarda onalar va bolalar o'rtasida temir tanqisligi – kamqonlik ko'plab uchrayotgani aniqlangan. Asoratlari bilan xavfli bo'lgan bu kasallik bolalarning aqliy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi: bolaning xotirasi pasayib, maktabdagi o'qishi yomonlashib, tez-tez kasallanaveradi.

Shuning uchun ham

O'zbekiston hukumati «Unni boyitish bo'yicha milliy dastur» ishlab chiqdi. Endilikda birinchi navli unlar temir moddasi va zarur mikroelementlar bilan boyitib chiqarilmoqda. Ularni bozor-u do'konlardan sotib olishingiz mumkin. Faqat xaridda e'tiborli bo'ling, bunday unlar qopida «Sog'lom mahsulotlar» belgisi bo'ladi.



«Salomatlik» darslarida ustozlaringiz temir tanqisligi, yod yetishmovchiligi kasalliklari va ulardan himoyalash borasida bergan tushunchalari hamon yodingizda ekanligi «Salomatlik garovi» nomli rasmlar radiotanloviga kelayotgan ijodiy ishlarigizdan ham sezilib turibdi.

Hamkorlar bilan Toshkent viloyatidagi «Tong», «Mehribonlik» oromgohlarida, bolalar va o'smirlar ijodiyot markazlarida bo'lganimizda, Xorazm, Qoraqalpoq, Andijon, Sirdaryo viloyatlaridan kelib, xushmanzara go'shalarda hordiq olayotgan bu bolajonlarning musavvirlik iqtidorlariga qoyil qoldik.

Eng yaxshi surat egalariga Xalqaro Bolalar jamg'armasi UNICEFning esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Nonpolvonning so'zlarini oqqa ko'chiruvchi:

Saidaxon ZOKIROVA,
«O'zbekiston» teleradiokanali
«Bolalar va o'smirlar»
muharririyati katta muharriri

Gazetaning navbatdagi soni
27-avgustda chiqadi.

Tong
YULDUZI

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV

Navbatchi:
Gulyuz
ORIFJONOVA

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzirimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel/faks: (99871) 144-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi. Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 20641
Buyurtma N: J